

QO'SHTEPADA SAHOVAT TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA



Muborak oylarda mehr-sahovat ko'rsatish, kam ta'minlangan oilalar holidan xabar olish xalqimizga xos azaliy qadriyatlarga aylangan. Xususan, Qurbon Hayiti bayrami munosabati bilan tumanimizda sahovatpesha insonlar tomonidan xayriya tadbirlari tashkil etilmoqda.



Jumladan, O'qchi mahallasidagi Yangi Farg'ona ko'chasida yashovchi ehtiyojmand oilalardan biri M.Ro'zimatovning xonadonida mahalladagi saxovatpesha insonlar tomonidan ta'mir ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, xomiylar tomonidan ushbu oilaga yangi gaz plitasi hamda gaz balon ham olib berildi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2023-06-26 13:55:09